AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI



Toshkent – 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

Toshkent – 2025

UO‘K 314.151(575)(08)
KBK 607(543)
Y 83

Akademik Ubaydulla Karimov tavalludining 105 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – 510 bet.

Mas’ul muharrir:

Bahrom Abduhalimov – tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

O‘ktambek Sultonov – tarix fanlari doktori, professor.
Salima Eshonova – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim.

Tahrir guruhi:

Laziz To‘rayev – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Akbar Idiyev, Maftuna Mirzayeva, Farrux Kamoliddinov,
Doston Tojiyev, Sherzod Karimov.

Ushbu to‘plamda qadimgi davrdan bugungi kungacha bo‘lgan sharqshunoslik sohasidagi dolzarb masalalar, tarix fani oldida turgan muammolar va ularning yechimlari, tarixshunoslikka oid tadqiqotlar, til, adabiyot hamda manbashunoslik masalalari, Sharq renessansi davri allomalari ilmiy merosining o‘rganilishi, qadimiy yozma manbalarning muomalaga kiritilishi kabi masalalarga qaratilgan tadqiqotlar o‘rin olgan. To‘plam sharqshunoslar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, tadqiqotchilar va keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan. To‘plam tarkibidan o‘rin olgan maqolalar mualliflarning ilmiy tadqiqot natijalari va shaxsiy ilmiy qarashlarini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti.

ISBN 978-9910-9030-5-2

Faromarzi Fayzullo[1]
Vohidova Malohat[2]

ESDALIKLAR TARIXIY MANBA SIFATIDA (MIRZO RAHIMBEKNING «ESDALIKLAR» ASARI MISOLIDA)

MEMORIES AS A HISTORICAL SOURCE (ON THE EXAMPLE OF MIRZO RAHIMBEK'S ESSAY «MEMORIES»)

Abstract. *The article analyzes Mirzo Muhammad Rahimbek's work «Memories» as a historical source. Because it sheds light on some of the uncertainties about Mirzo Rahimbek's life, the events of the period in which he lived, and the last years of Mirzo Salimbek's life. Mirzo Rahimbek's biography was fully covered in the background based on his own and his father's memories. The remaining uncertainties about Mirzo Salimbek's experiences from 1920 until his death were clarified based on «Memoirs». Also, the events related to the history of the former Bukhara Emirate and partly Tashkent in the 1920s-1960s mentioned in the work were covered in connection with the author's life experiences.*

The article also draws on research on the subject as an auxiliary source, revealing the source significance of «Memoirs». This work is described for the first time from the point of view of source studies. As a result of the analysis of the information presented in «Memoirs», it was shown that the works written in the «Memoirs» column also played a significant role in the development of Eastern historiography, in particular, historical knowledge.

Markaziy Osiyoda yozuv madaniyatining shakllanishi bilan, mintaqa tarixiga doir asarlar paydo bo'la boshladi. Vaqtlar o'tishi bilan tarixnavislik ma'lum me'yoriy qoidalar va yo'nalishlar asosidagi musulmon tarixnavisligi nomi ostida rivojlandi. Shu tariqa har bir davrda o'z zamonasi tarixi yoritilgan nodir tarixnomalar yaratildi. Bu masalani Buxoro tarixnavisligi an'alari misolida yaxshi bilamiz. Zero Narshaxiyning (899–959) *«Tarixi Buxoro»* («Buxoro tarixi») asari Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk namunalaridan biri bo'lsa, Buxoroning so'nggi tarixchisi Mirzo Salimbekning (1850–1930) *«Tarixi Salimiy»* («Salimiy tarixi») asari esa, so'nggi tarixnomalardan biri edi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Markazi Osiyo tarixi bilan bog'liq voqeliklar mahalliy va xorijiy tarixnavislar tomonidan ko'p sonli asarlarda qayd etib borilgan. Mazkur asarlar shakllanib kelgan an'analarga muvofiq, tarixnavislikning bir qancha yo'nalishlari asosida yaratilgan. Nasabnomalar, zafarnomalar, umumiy tarixnomalar, solnomalar, xronikalar, biografiyar,

[1] O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi.
E-mail: f.faromarzshoh@gmail.com.
[2] Erkin tadqiqotchi.

agiografiyalar, tazkiralar, memuarlar, kundaliklar va esdaliklar shular jumlasidan. Ularda mintaqa tarixining turli jabhalari oʻz aksini topgan.

Tarixiy asarlar orasida kundalik va esdalik janrida yozilgan manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Zero ular alohida asar sifatida muallifning shaxsiy guvohligi va xotiralar asosida yuzaga kelishidan tashqari, baʼzan yirik tarixnomalarning yaratilishi uchun manba vazifasini ham oʻtagan ham. Marko Poloning (1254–1324) «*Sayohatnoma*», Gʻiyosiddin Alining (XIV asr) «*Roʻznomai gʻazovoti Hindiston*» («Hindistonga yurish kundaligi»), Klavixoning (vaf. 1412-yil) «*Samarqandga sayohat kundaligi*», Gʻiyosiddin Naqqoshning (XIV–XV asrlar) «*Roʻznomai safari Chin*» (Xitoy safari kundaligi»), Abdurazzoq Samarqandiyning (1413–1482) «*Hindiston safari kundaligi*», Armini Vamberining (1832–1913) «*Buxoro yoxud Movarounahr tarixi*», Amir Abdulahadxonning (1857/1885–1910) «*Piterburg safari kundaligi*» asarlari va boshqa kundaliklar mazkur janrning nodir namunalari hisoblanadi. Mirzo Muhammad Rahimbek ibn Mirzo Salimbekning (1902–1977) «*Esdaliklar*» kitobi ham, oʻzida maʼlum darajadagi tarixiy jarayonlarni aks ettirgan kundalik janridagi manbalardan biridir.

Kundaliklar va esdaliklar garchi koʻpincha umumiy nom bilan «*Kundalik*» deb yuritilsa-da, ular mazmunan oʻzaro farq qiladi. Kundaliklar odatda maʼlum bir mavzu asosida yozilib, muallif tomonidan xronologik izchillikka rioya qilinib, asosan voqelik yuz bergan vaqtdayoq qogʻozga tushiriladi. Gʻiyosiddin Naqqosh, Abdurazzoq Samarqandiy va Amir Abdulahadxonlarning «*Kundalik*»lari shular jumlasidandir. Esdaliklar janridagi asarlarda esa, voqealar muallifning oʻtmishdagi xotiralari va shaxsiy kechinmalari asosida keyinchalik yozilgan boʻladi. Shuning uchun esdaliklar odatda xronologiya va mavzular ketma-ketligi jihatidan tizimlashtirilmagan holda yoziladi va mavzu doirasi chegaralanmagan boʻladi. Esdaliklar turkumidagi asarlar ham baʼzida tarixning turli boʻsh sahifalarini toʻldirishga xizmat qiladi. Shundan keli chiqqan holda maqolada Mirzo Rahimbekning qisqacha tarjimai holi va «Esdaliklar» asarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati yoritiladi.

Insoniyat tarixini xolis yoritish, mavjud manbalarga tayangan ilmiy xulosalarni talab qiladi. Tarix daftarining bizga nomaʼlum boʻsh varaqlari koʻp boʻlib, bu oq sahifalar vaqtning zayli bilan soʻnggi yillarda topilayotgan yangi manbalar va izlanishlar natijasida yuzaga chiqayotgan ilmiy xulosalar bilan toʻldirib boriladi. Maʼlumki, boy tariximiz haqida maʼlumot beruvchi manbalarning aksariyati mustamlakachi hukumatlar tomonidan turli yoʻllar bilan yoʻq qilingan, yoki xorijga olib chiqib ketilgan. Shuningdek, mahalliy aholimiz qoʻlida saqlanib qolgan manbalar ham mavjud boʻlib, ular oxirgi yillardagi izlanishlar jarayonida ilmiy muomalaga kiritib borilmoqda. Xususan, M. Vohidova tomonidan Buxoroga qilgan safari vaqtida (2022-y.

yanvar) Mirzo Salimbekning o‘g‘li Mirzo Muhammad Rahimbek qalamiga mansub *«Esdaliklar»* kitobi borligi aniqlandi. Asar hozirda uning o‘g‘li Ismoil Salimov (1946–2024) shaxsiy kutubxonasida saqlanmoqda. I.Salimov mazkur kitobni bizga tadqiqot va nashr uchun taqdim qilgan edilar (2022-yil). Asarda tarixiy voqealar muallifning shaxsiy hayoti va kechinmalari asosida yoritilgan. Shunday bo‘lsa-da, unda tarixiy jarayonlarga aniqlik kirituvchi ma’lumotlar ham mavjud.

Mirzo Rahibekning *«Esdaliklar»* kitobi fors-tojik tilining XX asr Buxoro shevasida, fabrika qog‘ozida yozilgan yagona nusxadagi qo‘lyozma hisoblanadi. Asarning 195 betda qayd qilinishicha unda keltirilgan voqealar muallifning musavvadasi (qoralama qaydlari) asosida 1972-yilning aprel oyida ko‘chirib tugatilgan. Biroq, asar 1970-yil 26 oktabr voqealar bilan tugatilgan.

«Esdaliklar» asari muallifning hayoti davomidagi shaxsiy xotiralari asosida yozilgan bo‘lib, unda Buxoro amirligi va Turkiston general-gubenatorligining so‘nggi davrlari bilan bog‘liq voqealar va mazkur hududlarda keyinchalik tashkil etilgan siyosiy birliklar, xususan, 1918-yilgi Buxoro inqilobi, Buxoro amirligining tugatilishi, BXSRnig tashkil etilishi, bolsheviklar hukumati va Sobiq Sovet Ittifoqining salkam yarim asrlik tarixi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jarayonlar ham o‘z aksini topgan. Mirzo Rahimbek garchi otasi kabi yirik tarixchi sifatida katta hajmdagi tarixiy asar yozishni rejalashtirmagan bo‘lsa-da, uning «Esdaliklar»ida keltirilgan xotiralari, mamlakatimiz o‘tmishining 1902–1970-yillar tarixi bilan bog‘liq jarayonlarni to‘ldirishga xizmat qiladigan mu’lumotlar mavjud. Zero unda, tarix fani uchun hanuzgacha noma’lumligicha qolayotgan Buxoro amirligining oxirgi tarixchisi – devonbegi Mirzo Salimbek hayotining so‘nggi yillari batafsil yoritilgan.

Asarda shuningdek, inqilobchilar tomonidan qo‘lga olingan Amirlik amaldorlarining keyingi taqdiri, oilalarining sarson-sargardonlikdagi hayoti, Markaziy Osiyo aholisining mustamlaka siyosatidan chekkan zahmatlari haqida ham ma’lumotlar berilgan. Shu qatorda, 1929–1933-yilgi jahon iqtisodiy inqirozining Buxoro bozorlari va aholi turmush sharoitiga ta’siri, oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlarining narx-navosi hamda ishlab chiqarish korxonalarining holati haqida ham birmuncha qaydlar mavjud. Buxoro va uning atrofidagi shaharlar aholisining, xususan, hunarmand va savdogarlarning birinchi jahon urushidan keyingi davrdagi ahvoli ham qisman yoritilgan. Zero muallif mazkur yillarda turmush qiyinchiliklari sabab, o‘ndan ortiq tikuv sexlarida va bozorlarda faoliyat yuritgan edi. Asarda shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRdagi ijtimoiy ahvol va o‘tgan asrimizning 50-yillarida mavjud ayrim hibsxonalar hayoti borasida ham birmuncha ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Mirzo Rahimbekning «*Esdaliklar*» asarida salkam bir asrlik tarixiy jarayonlarni to‘ldiruvchi ma’lumotlarga ega. Biroq, uning maxsus tarixiy asar sifatida yozilmaganligi muallif tomonidan bir necha o‘rinda eslatib o‘tiladi. Bu masala ayniqsa asarning mazmuni bilan tanishib chiqish asnosida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zero muallif uni yozish chog‘ida xronologik va mazmuniy ketma-ketlik prinsiplariga amal qilmagan. Shuningdek, uni ma’lum bir mundarija asosida shakllantirmagan. Faqatgina ba’zi o‘rinlarda matnlar maxsus sarlavha bilan boshlangan xolos. Ayniqsa o‘z tarjimai holiga doir mavzular, xususan, yoshlik davriga doir ma’lumotlar kitobning avvalgi fasllarida qisman keltirilib, so‘nggi fasllarni yozish chog‘ida yana shu mavzuga qo‘shimcha qilinadi. Shunday bo‘lsa-da, kitob bilan tanishib chiqish asnosida, unda keltirilgan mavzularni mazmuniga qarab fasllarga ajratish va mazmuniga mos mundarijasini shakllantirish mumkin.

Kitobga yashil rangda hoshiya chizilgan bo‘lib, asosiy matn siyoh rangda, sarlavhalar va sahifalar qizilda va ayrim muhim o‘rinlar matnlar ham yashil va qizil ranglarda yozilgan. Uning umumiy hajmi 200 sahifa (100 varaq) bo‘lib, asosiy matn 10-sahifadan boshlanadi [15: 1]. Muallif asarning ayrim joylarida o‘z davridagi Buxoro shevasiga xos so‘zlar va rus tilidan kirib kelgan terminlarni ham qo‘llagan. *Yavg‘on ovqati, zaborni non, ukaz, statya, zaklucheni, turma, banderol, ariston, stansa, vulniy do‘xtir, izolyator* kabi so‘zlar va rus amaldorlari ism sharifining arab yozuvida yozilgan varianti shular jumlasidandir. Zero fors tilidagi matn orasida bunday so‘zlarning duch kelishi ularni to‘g‘ri o‘qish jarayonini biroz qiyinlashtiradi. Shuningdek, asarda Qur’oni Karim oyatlari, hadisi sharif, hikmatli so‘z va iboralar arab tilida keltirilgan [15: 20, 39, 132]. Muallif matn mazmuniga muvofiq ravishda Shayx Sa’diy Sheroziy (1210–1292) va Xoja Hofiz Sheroziy (1325–1389) kabi klassik fors-tojik she’riyati namoyandalarining nazmiy parchalaridan ham unumli foydalangan [15: 18]. Shu bilan birga, o‘zi tomonidan yozilgan sherlardan namunalar ham keltirib o‘tgan [15: 16, 61–69]. Kitob hoshiyasida faqat bir-ikki o‘rinda qaydlar mavjud [15: 127, 128, 137]. Umuman olganda «*Esdaliklar*» yaxshi holatda saqlangan.

Mirzo Rahibek «*Esdaliklar*» kitobida voqealarni o‘zining shaxsiy kechinmalari asosida yozilganligini inobatga olib, quyida mazkur asarda keltirilgan uning muallifi va otasining tarjimai holi bilan bog‘liq ayrim muhim jihatlar tahlil qilindi.

Muhammad Rahimbek ibn Mirzo Salimbekning tarjimai holi o‘z «*Esdaliklar*»i, qisman otasi Mirzo Salimbekning «*Tarixi Salimiy*» asari hamda o‘g‘li I. Salimovning «Mirzo Salimbek» nomli risolasi orqali ma’lum [5; 16]. Uning taxallusi «Qoribek» bo‘lib, Salimbekning toshkentlik ayolidan dunyoga kelgan. U 1319 yilning zulqa’da oyida (1902-y. 8 fevral – 9 mart) otasi Mirzo Salimbek Boysun bekligida hokim bo‘lib turgan chog‘ida (1902–1905) mazkur

shaharda tug‘ilgan [15: 22]. Mirzo Salimbekning «*Tarixi Salimiy*» asarida ham o‘g‘lining aynan shu sanada tug‘ilganiga ishora qilgan [16: 113*b*].

Rahimbekning otasi Mirzo Salimbek 1878-yilda mulla Abdurazzoq ismli toshkentlik savdogarning qiziga uylanib undan 5 nafar qiz va 3 nafar o‘g‘il farzand ko‘rgan [15: 27]. Ular Saida, Muhammadqulibek, Haydarqulibek, Davrona, Rahimqulibek, Muborak va yana ikki nafar qiz bo‘lib, ismlari «*Tarixi Salimiy*»da ham «*Esdaliklar*»da ham qayd etilmagan.

Mirzo Salimbekning boshqa ayollaridan Homidqulibek[1], Avliyoqulbek[2], Azimqulibek, Qilichbek[3], Allomaxon, Abdulfattoh kabi o‘ndan ortiq farzandlari ham bo‘lgan. Mirzo Rahimbekning aytishicha, ularning oilasida yoshligidan o‘zbek tilida so‘zlashilgan, sababi onasi 43 yil mobaynida Buxoroda yashagan bo‘lsa-da, fors tilini to‘liq bilmagan. Qolaversa otasi ham oilada o‘zbek tilida gaplashish tarafdori bo‘lgan [15: 179].

Mirzo Rahimbek «*Esadaliklar*»da qayd etishicha, 10 oylik paytida oyog‘idan yara chiqib, jarrohlik yo‘li bilan davolangandan so‘ng bir oyog‘i cho‘loq bo‘lib qolgan [15: 23–24]. Uning go‘daklik davri 3 yoshiga qadar Boysun bekligida o‘tgan. Otasi 1905-yilda Sherobodga hokim etib tayinlangach, 1909-yilga qadar oilasi bilan birga o‘sha yerda yashagan. Ilk ta’limni 5 yoshida Sherobodda boysunlik Mullo Orif ismli shaxsdan olgan [15: 178–179]. 1910-yilda otasi Shahrisabzga hokim etib tayinlangach esa, o‘sha yerdagi eski maktabda ta’limni davom ettiradi [15: 25]. Shu yili Shahrisabz taraqqiyparvarlari Samarqanddan Avliyoqul ismli bir muallimni olib kelib, yangi usul maktabini ochganlar. Bu xabarni eshitgan Mirzo Salimbek mazkur maktabni o‘z homiyligiga olib, farzandlari Azimqulibekni Rahimbeklarni ushbu maktabga beradi [15: 27]. 1914-yilda esa, Salimbek yangi mansabga tayinlangach butun oila Buxoroga qaytgan.

Rahibekning qayd etishicha, otasi uni yoshligidan murattab qori bo‘lishini istagan. Shu sababdan unga «Qoribek» deb, murojaat qilgan. Shahrisabzdan Buxoroga qaytib kelgach, o‘qishni davom ettirib, buxorolik ustozlaridan (Mullo Homid, Muftiy Domulla Yusuf sudur, Domulla Xudoydod Qaroteginiy va Qori Mulla Muhammadjon Ho‘qandiy) arab tili grammatikasi, fiqh, husnixat va imloni ilmlaridan ta’lim olgan [15: 28]. U voyaga yetib, ma’lum darajadagi ilm va tajribaga ega bo‘lgach, o‘z otasining qo‘l ostida turli vazifalarda ishlay boshlagan. 1919-yilning fevral oyida Amir Olimxon tomonidan unga qorovulbegi[4] lavozimi berilib, yorliq va sarpolar ham taqdim qilingan [16: 208*a*].

---

[1] Mirzo Salimbekning birinchi buxololik ayolidan tug‘ilgan katta farzandi.

[2] Poshqurtlik ayolidan tug‘ilgan. Yoshligida vafot etgan.

[3] Qilichbek Salimbekning shahrisabzlik ayolidan tug‘ilgan.

[4] Qorovulbegi – harbiy qorovul qism boshlig‘i.

1920-yili mart oyida Mirzo Salimbek Chorjo‘yga hokim etib tayinlangach, Rahimbek ham o‘sha vaqtda otasining xizmatida bo‘lgan. Avgust oyi oxirida qizil askarlarning Chorjo‘yga hujumi natijasida, ularning qo‘liga tushib, Chorjo‘y viloyatining Devonbegi guzaridagi Devonabog‘ zindonida hibs qilinadi. O‘sha vaqtda Chorjo‘y shahri hech qanday ziddiyat va qarshiliksiz qizil askarlar tomonidan egallangan edi. Hibsga olinganlar orasi viloyat hokimi bo‘lgan otasi Mirzo Salimbek, Chorjo‘yning katta qozisi, raisi, zakotchisi va boshqa amaldorlar ham bo‘lib, ular keyinchalik Toshkentdagi qamoqxonaga yuborilgan. 1920-yilning 2-sentabrida Sho‘ro hukumati tomonidan Buxoro davlati butunlay ishg‘ol etildi. Amir hukumati barham topib, uning o‘rniga Buxoro xalq sovet jumhuriyati tashkil qilingan [15: 32–33].

Bir ozdan so‘ng qo‘lga olinganlarning bir qismi ozod etiladi, shu tariqa Mirzo Rahimbek ham kichik jussali va biroz ozg‘inroq bo‘lganidan juda yosh ko‘ringanligi sabab jazodan qutilib qoladi hamda onasining oldiga Buxoroga qaytadi. Buxoro inqilobidan so‘ng, Mirzo Salimbek hibsga olinib uning barcha mol-mulklari yangi hukumat tomonidan musodara qilingan. Natijada uning oilasi tang ahvolda qoladi, barcha xizmatkorlariyu yoru birodarlari ulardan yuz o‘giradilar. Uning oilasi o‘zlariga ijaraga uy olib yashashga majbur bo‘ladilar.

Rahimbek otasi kabi ilmli shaxs bo‘lganligi bois, Amirlik hukumatining so‘nggi yillarida turli hududlarda mirzolik ham qilgan. O‘tgan asrning 30 yillarida ham Buxoroning bir necha qishloq sovetlarida (xususan Kogonda) bosh kotiblik lavozimida faoliyat yuritgan. U inqilobdan avval Buxoroning Shayx Jalol guzaridan bo‘lgan 14 yoshli Mukarram ismli qizga uylangan [15: 30]. Ikkinchi oilasi Hidoyatxondan Zaynab va Abdulaziz ismli ikki farzand ko‘rgan [15: 53–54]. Biroq, uzoq yillar davomida Rahimbekning homiyligida kun kechirgan qaynisi Mahmud Toshkentda ta’lim olib, 1928-yilda Chiroqchi tumaniga prokuror bo‘lib qaytadi. Mirzo Rahimbekni Amirlik amaldorlaridan ekanligi sabab o‘z mansabidan xavotirlanib, singlisini undan ajratib oladi [15: 14–18].

Rahimbek 1938-yilda Hoji Ba’d ismli kishining qizini nikohiga olib, undan Naimjon ismli bir o‘g‘il ko‘radi, ammo u ikki yoshida betob bo‘lib olamdan o‘tadi. 1941-yilda mazkur ayolidan Ibrohimjon, 1946 yilda esa Ismoiljon ismli ikki o‘g‘li dunyoga kelgan. Ularning avlodlari hozirda Buxoro va Toshkent shaharlarida istiqomat qiladilar.

Mirzo Rahimbek Sovet hukumati davrida turli idoraviy ishlarida (ish yurituvchi, hisobchi) ishlagan bo‘lsa-da [15: 70], turmush sharoiti asosan qiyinchilik va taqchillikda o‘tgan. Shuningdek, tirikchilik yo‘lida tikuvchilik, do‘ppido‘zlik, qulfsozlik, sexlarda tabelchi, bozorda pul teruvchi, maktabda xo‘jalik mudiri kabi ishlari bilan ham shug‘ullangan.

Rahimbek 1946-yildan Fayzullo Sayfulloev ismli kishining qo‘lida ombor-xona mudiri lavozimida ishlay boshlagan. Sodda va ishonuvchanligidan ko‘p kirim-chiqim hujjatlariga rahbarining aldovlariga ishonib imzo qo‘yadi, buning oqibatida 24 ming kamomad hisobiga shu yili sud qilinib 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. U «jazo muddatini» Angren (1951-yilga qadar), Bekobod (8 oy), Toshturma va Jizzax (1952–1953) hamda Chirchiq (1954 y.) hibsxonalarida o‘taydi. Rahimbek nihoyat 8 yildan so‘ng, 1954-yilgi amnitsiya hukmiga ko‘ra, 19-avgust kungi sud qarori bilan Chirchiq qamoqxonasidan ozodlikka chiqadi.

Buxoroga qaytganidan so‘ng, farzandlari Ismoiljon va Ibrohimjonlar otasining oldiga kelib yashaydilar. Mirzo Rahimbek do‘ppido‘zlik ishini davom ettirib, uzoq muddat turli joylarda ikki o‘g‘li bilan ijarada yashaydi. U 1964-yilda pasport buyicha 65 yoshida pensiyaga chiqadi [15: 169–170]. Rahimbek ko‘p mashaqqatlar chekib bo‘lsa-da, ikki farzandining ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Mirzo Rahimbekning tarjimai holidan ko‘rdikki uning butun umri tahlikali davrlarning mashaqqatli ijtimoiy hayoti bilan hamohang kechgan. Shu boisdan u otasi kabi komil ilm va yuqori lavozim egasi bo‘la olmagan bo‘lsa-da, ziyoli oilaning farzandi sifatida o‘z davrining sanoqli xat-savod egalaridan biri bo‘lgan. U 1977-yilda hujjat bo‘ycha 78 (aslida 75) yoshida vafot etadi.

Mirzo Rahimbekning otasi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahim o‘z davrining yirik ma’rifatparvar va ilmli davlat arboblaridan bir bo‘lgani ma’lum. U Amir Muzaffar (1860–1885) davrida mirzolik va parvonachilik lavozimlarida, Amir Abdulahad (1885–1910) davrida Buxoro shahri mirshabboshisi (1888–1893), Yakkabog‘ (1893–1898), Nurota (1898–1902), Boysun (1902–1905) va Sherobod (1905–1909) viloyatlarida hokimi va Amir Olimxon davrida (1910–1920) Shahrisabz[1] (1910–1914) va Chorjo‘y (1920) hokimi hamda zakotchi, devonbegi mansablarida ishlagan edi [7: 6–7; 10: 13–14]. Salimbek Buxoro mirshabboshisi vazifasida ishlab yurgan chog‘ida shaharning Masjidi baland guzarida o‘z mablag‘lari hisobidan pishiq g‘ishtdan bir qavatli madrasa ham qurdiradi. Mazkur 13 hujrali madrasaga ko‘p miqdordagi yer suv va do‘konlardan iborat mulklarni vaqf qilib, darslik kitoblari bilan ham ta’minlaydi [16: 98*b*–99*a*]. Shuningdek, Nuratodagi shayx Abdulhasan Nuriy maqbarasini [16: 114*a*–114*b*] va Sheroboddagi Imom Termiziy maqbarasi yonidagi masjidni ta’mirlatadi va ularga vaqf mulklari tayinlaydi [16: 111*b*].

Mirzo Salimbekning Amirlik davridagi hayoti va ilmiy faoliyati tadqiqotlar orqali ma’lum [1; 2; 3; 4; 6; 7; 8; 9; 11; 12; 13; 14; 17;18]. Lekin uning

[1] Mirzo Salimbekni Shahrisabz hokimligiga 1910-yilda amir Abdulahadxon tayinlagan edi.

1920-yildan keyingi taqdiri noaniqligicha qolmoqda edi. Mirzo Rahimbekning «*Esdaliklar*»i topilgach esa, bu masala birmuncha oydinlashdi. Zero, muallif unda o‘z otasi hayotining so‘nggi kunlari haqida yetarli darajada ma’lumotlar qoldirgan. Unda keltirilishicha, Mirzo Salimbek 1920-yil 29-avgustda qizil qo‘shinlar tomonidan Chorjo‘yda qo‘lga olingach, amirlik amaldorlari qatorida avval Toshkentdagi qamoqxonaga olib ketilgan. So‘ngra u yerdan qahraton qish kelayotganligiga qaramay Rossiyaga yuborilgan. Nihoyat 4 oylik sargardonlikdan so‘ng mahbuslarni ortga qaytarish haqida buyruq bo‘lib, ular yana Toshkentdagi qamoqxonaga keltirilgan. Shu orada vagonlari sobiq amirlik amaldorlariga to‘la poyezd Rossiya hududidagi temiryo‘l stansiyalaridan birida qahraton qishning baland qorli mahalida bir necha kun to‘xtab qoladi. Mahbuslar esa ta’minotsiz qolib ketishadi. Ular Mirzo Salimbek va Mirzo Abdusalomlar harakati bilan o‘sha joyning inqilobiy hukumat idorasidan yordam so‘rab, ortga qaytish farmoniga ega bo‘ladilar. Biroq, mazkur sovuqda Mirzo Salimbekning bir ko‘zi qattiq shamollab xasta bo‘lib qolgan edi. Ozodlikka chiqqanidan so‘ng Toshkent va Samarqandda uzoq muddat davolanish va hatto jarrohlik amaliyoti ham foyda bermay uning bir ko‘zi ko‘rmay qolgan [15: 36–28].

Mirzo Rahimbekning yozishicha otasi va boshqa mahbuslarning Toshkentdan Buxoroga olib kelinganligi haqida, u 1921-yil bahor kunlarining birida xabar topgan. Mirzo Salimbek Sitorai Mohi Xossadagi zindondan Abdurauf Fitrat va boshqa jadid ma’rifatparvarlari ko‘magi bilan ozodlikka chiqariladi. Zero, Mirzo Salimbek kabi ziyoli, xat-savodli, kishi yangi tuzum uchun ham suv va havodek zarur edi. Ismoil Salimovning qayd etishicha, Kolesov hujumidan keyin tuzilgan sulh shartlaridan birida ocharchilik hukm surayotgan Rossiyaga Buxoro donini yetkazib berishga o‘zaro kelishib olingan. Sulhning asosiy bandi aynan Mirzo Salimbek tomonidan ilgari surilganligi bois ham sho‘rolar hukumatining boshlig‘i shaxsan Vladimir Ulyanov (Lenin) tomonidan uning ilgarigi «gunohlari» kechirilib, ozodlik marhamat qilinadi [5: 10].

Ozodlikka chiqqan Mirzo Salimbek yangi tuzilgan davlat sharoitida endi faqat ilmiy va ijodiy ishlar bilan shug‘ullana boshlaydi. U dastlab Abdurauf Fitrat rahbarligidagi «Anjumani tarix» jamiyatida faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur jamiyat a’zolari Mir Arab madrasasidan joy olib, Buxoro arki va madrasalarda saqlanayotgan kitoblarga sharh yozish bilan shug‘ullanadilar [15: 46–48]. Salimbek yangi hukumat davrida Buxoroning qadimiy san’at va tabiat yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi tomonidan amalga oshirilgan Buxoro Ark tarixini tuzishda ishtirok etgan. Shuningdek, soliq boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari, so‘ngra vaqf daromadlari bilan shug‘ullanuvchi idorada qadimiy qo‘lyozmalar kutubxonasiga ham rahbarlik qilgan.

Inqilobga qadar Mirzo Salimbekning Buxoroda 14 ta katta hovlisi bo‘lgan, inqilobdan so‘ng esa bu uylarning bari bor boyliklar bilan birga ruslar tomonidan tortib olingan edi. Mirzo Salimbek ozodlikka chiqqanidan so‘ng yangi hukumat uning Jo‘ybor guzaridagi dala hovlisini kerakli jihozlari bilan yashash uchun qaytarib bergan. Shuningdek, 2 ta chorbog‘ va bir nechta dala hovlilari ham dehqonchilik qilib hukumatga mahsulot yetkazib berish uchun qaytarilgan.

«*Esdaliklar*»da keltirilishicha, 1922-yilda Moliya nazorati huzurida Soliq qo‘mitasi tashkil etiladi. Mirzo Salimbek mazkur soliq idorasiga ishga kiradi. Undan so‘ng ushbu idoraning Buxoroda tashkil etilgan zakot ishlari bo‘limiga mudir bo‘lgan Ostonaqulbiyning (1860–1923) muovini etib tayinlanadi. O‘sha vaqtda hukumat «Moliya nazorati» idoralariga eski tajribali amaldorlarni ishga tayinlay boshlagan edi. Mirzo Salimbek undan so‘ng vaqf kutubxonasiga ishga kiradi va bir muddat shu yerda ishlaydi [15: 38]. Shu o‘rinda Mirzo Rahimbekning qayd etishicha, otasi «*Tarixi Salimiy*» asarini mazkur kutubxonadan bo‘shagan vaqtlarida yoza boshlagan (taxminan 1923-yilda) [15: 51]. 1924-yilning aprel oyida (Ramazon oyi) sobiq Amirlikning barcha amaldorlarini qamoqqa olish haqida farmon chiqariladi. Natijada bir nechta hukumat odamlari Mirzo Salimbekning uyiga kelib, uning hovlisida taftish o‘tkazadilar va o‘zini esa hibsga oladilar. Mahbuslar Toshkentga olib borilib, ularning har biriga birin-ketin jazo tayinlanadi. Ular orasida faqat qarib qolgan 4 kishinigina to‘rt oydan keyin ozod qilib, javob beradilar. Shulardan biri 74 yoshli Mirzo Salimbek edi [15: 63]. Mirzo Salimbek 1925-yilda 75 yoshida yana bir o‘g‘il farzand ko‘radi va unga Nosiriddin (o‘sha Abdulfattoh) deb ism qo‘yadi [15: 62].

Mirza Salimbek 1930-yilga kelib qattiq betob bo‘lib qoladi. Mirzo Rahimbekning yozishicha, otasi o‘sha paytda nafas qisishi (astma) kasaliga duchor bo‘lgan va mazkur yilning mart oyida vafot etgan. Mirzo Salimbekning jasadi Hazrati Imom mozoridagi 40 yil oldin o‘z avlodlari uchun atab qurdirgan maxsus joyda (xilxonada) dafn qilinadi [15: 68–69]. Mirzo Rahimbekning onasi ham 1921-yilda vafot etgan va mazkur oilaviy xilxonada dafn qilingan [15: 27, 39].

Xulosa. O‘tmish tarixiga doir biz bilgan manbalar, moziyning turli jabhalarini o‘zida aks ettirgan. Biroq tarix daftarining bizga noma’lum bo‘sh varaqlari ham ko‘p. Bu oq sahifalar vaqtning zayli bilan so‘nggi paytlarda aniqlanayotgan yangi manbalar va izlanishlar natijasida yuzaga chiqayotgan ilmiy xulosalar bilan to‘ldirib borilmoqda. Shu jumladan Mirzo Muhammad Rahimbekning «*Esdaliklar*»ini topilishi ilmiy tadqiqotlar uchun manbaviy asosning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Zero uning XX asrning salkam 70 yillik tarixini to‘ldiruvchi qo‘shimcha ma’lumotlarga ega ekanligi mazkur tadqiqot

M U N D A R I J A

SO‘ZBOSHI 3

TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK

Allayeva N.A. *Bobojon Safarovning «Xorazm xonliklariga tegishli tarixiy materiallar» asari borasida* 5
Пуговкина О. *Дневники О.Н. Маллицкой: об эпохе и судьбе русской интеллигенции* 9
Mehti-zade S.Ç. *Azerbaycan’ın ortaçağ kentleri Evliya Çelebi’nin «seyahatname»sinde* 16
Aminov H.A. *Ismoil Gaspiralining «Turkiston lamosi» asari haqida.* 22
Muhammadaminov S.M. *Movarounnahrda mug‘ullar davriga oid qozilik ishlarini yuritishga doir ikki asarning qo‘lyozmalari xususida* 29
Lutfillayev H.M. *Temuriylar davri tafsirlarida moturidiylik ta’limoti* 35
Abdupattayev M.M. *Ibn Xaldunning «Muqaddima» asarida yahudiylik va xristianlik dini rohiblari funksiyalarining yoritilishi* 39
To‘rayev L.A., Nizomova N.Q. *Mahmud Zamaxshariy «Rabi’ al-abror» asarining Yevropadagi qo‘lyozmalari tavsifi.* 42
Jaynarov O.H. *O‘zbekiston Milliy arxivining R-904 fondi advokatura tizimida o‘tkazilgan «tozalash» siyosatini yoritish manbasi sifatida.* 50
Musametov B.E. *Ibn Sinoning «Yurak dorilari» nomli risolasining 12-fasli haqida* 55
Abdurazzoqova-Abduraxmonova Y.M. *«Fotuhati shohiy» asari XVI asr Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarni o‘rganishda muhim manba sifatida.* 61
Faromarzi F., Vohidova M. *Esdaliklar tarixiy manba sifatida (Mirzo Rahimbekning «Esdaliklar» asari misolida).* 66
Fayzullayev F.E. *Fazlulloh Ibn Ruzbehonning «Suluk al-muluk» asarining tadqiqi va tasnifi* 76
Kuranbayeva U. *Bir jumlada ikki asr tarixi bayoni.* 81
Mamadjanov A.A. *«Tuhfat al-xoniy» Mang‘itlar davri etnik hayotiga oid muhim manba* 85
Murodova R.D. *O‘zbekiston muzeylarida restavratsiya laboratoriyalarining tashkil topishi* 91
Nasirillayeva N.F. *Abdulla Nosirov yozma merosi va uning tasnifi* 97
Ostonov J.D. *Markaziy Osiyoning islomlashuviga bag‘ishlangan fransuz tilidagi ba’zi tadqiqotlar* 105
Xidirova G.R. *«Tarixi Rashidiy» asarida gidronimlar tavsifi* 112
Хуснутдинов Ф.Р. *Утерянный автограф зачётного сочинения А.Э. Шмидта о четверостишиях Хафиза* 117
Чориев Ш.Х. *Источнико-архивоведческий анализ банковского дела Туркестанского генерал-губернаторства* 121
Saparov S.X. *O‘zbekistonlik olimlarning kidariylar bo‘yicha tadqiqotlari.* 129

Ishiyama M. *The articles of Zarif Bashiri in The Turkistan Communist Party Newspaper «Turkiston»*. 134
Идиев А. *Китобат ул-атфол: Вклад Махмудходжи Бехбуди в развитие образования в Туркестане* 143

MARKAZIY OSIYO TARIXI

Sultonov O‘.A. *Turkiston xonliklari saroy devonxonasi shakllanishi masalasiga doir*. 149
Rahimov K.R. *O‘rta asr Buxoro kutubxonalari tarixidan*. 157
Jamolova D.M. *Hoji Muin publitsistikasida Turkiston tarixi masalalari*. 162
Azizpour Sh. *Persian-Central Asian artistic encounters on The Silk Road: Bandian & Panjikent in visual dialogue* 169
Axmatov A. *Buxoro jadid adabiyoti vakillarining 1917–1920-yillardagi taqdiri*. . 178
Djumaniyazova F. *Ilk «Turkon» Xotun – Xunak Xotun yoki Qabaj Xotun, Xunakxudot – Buxoroning ilk o‘rta asr turkiy hukmdorlari*. 182
Ismoilov Sh.Z. *X–XI asrlarda Xorazm aholisining etnik va diniy tarkibi (manbalar tahlili asosida)*. 189
Misa H.R. *O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi bo‘yicha yangi tadqiqotlar: savdo aloqalari va iqlimshunoslik misolida*. 195
Karimov Sh.Sh. *Qo‘shvazirlik – Temuriylar davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos tizim*. 200
Адилов Дж. *Герб Туркестанского генерал-губернаторства: история создания и его семантика*. 206
Aslonova A.A. *Buxoro adıblarınıng pedagogık faolıyati*. 213
Ermatova M.A. *Amudaryo bo‘limining mahalliy sud tizimida ayollarning o‘rni* 217
Hamrayev S. *Enazar elchi madrasasini Yekaterina II qurdirganmi?* 222
Jumaeva N.A. *From the history of the farming culture in Lower Zarafshan oasis (during late XIXS and early 20s)*. 228
Nosirov Sh.O‘. *Buxoro amirligidagi aprel voqealarida Mahmudxo‘ja Behbudiyning ishtiroki* 237
Quvvataliyev U.B. *Bo‘lat Soliyevning «O‘rta Osiyo tarixi» asari haqida* 241
Suvonkulov M. *Jizzax vohasi «turk» guruhining moddiy madaniyati (kiyim-kechak va uni tayyorlash asboblari misolida)* 246
Toshtemirova Sh.Sh. *Avestoda ayollar: muqaddas obraz, ijtimoiy mavqe va unutilgan tenglik* 253
G‘oyibnazarova M.O‘. *Mahmudxo‘ja Behbudiy: urf-odat va an’analar haqida*. 259
To‘rayeva G.B. *O.A. Suxareva tadqiqotlarida Buxoro shahrida suv ta’minoti, hovuzlar va bog‘lar joylashuvi haqidagi ilmiy-tarixiy mulohazalar* 264

ISLOMSHUNOSLIK

Usmanov I.S. *Hanafiy mazhabida shar'iy hiylalar*. 272
Ismatova N.A. *Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)* 280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. *Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах* 284
Jumaniyozov M.D. *«Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili*. 291
Jo'rayev M.X. *Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi*. 304
Mirzayev N.M. *Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida*. 310
Dadamirzaev M.O. *Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili*. 315
Salimova D.A. *«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi*. 320
Samsakova H. *Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi*. 326
Sayfullaev M.S. *«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni*. 330
Yunusova S.O. *«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi* . . 334
Hamdamova Sh.V. *Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi*. 341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. *O'rtaturk tili va o'rtabitik yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojidagi o'rni* 347
Yanar C. *Türk dünyasi dokuma mirasinda samsun yöresi dokumalardan bazi nakişlar (elibelinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)*. 353
Пилипчук В.Я. *К истории басмыльской государственности*. 363
Memmedova M.N. *Azerbaycan ve özbek halk kültüründe doğum ritüelleri* 365
Özkurt K. *From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yildirim Bayezid* 378
Тохтиев Ш.Р. *Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране* 391
Xodjimuratova D.S. *Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari*. 398
Kamoliddinov F.B. *Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari* 404
Nurumbetova S.R. *Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi* 409
Tojiev D.B. *Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects* 413

Xamdamov E.I. *Ziyo Go‘kalp qarashlarida ixtiyoriy hayotni tushunish* 421
Xomidov D.I. *Jamoliddin Afg‘oniy diniy-falsafiy qarashlarining Nosirxon To‘raga ta’siri* 428
Yuldashov Sh.A. *XX asrning birinchi yarmidagi Sharqiy Turkiston madaniy hayoti* 432
Шаймергенова Г.А., Байдаров Е.У. *Перспективы развития ШОС в контексте Казахстанско-Китайского стратегического партнерства* 437

FILOLOGIYA

To‘xliyev B., Qurbanboyeva Z. *Ayyub – o‘zbek adabiyoti tarixidagi yangi nom* 443
Eshonova S.N. *Devonlar yig‘ma matni: talqin va yondashuvlar* 450
Kasımova S.A. *Masallarda karaçuha imgesinin epik-mifoloji anlam özellikleri* . . .455
Madaliyeva O.R. *Alisher Navoiy «Badoyi’ ul-bidoya»si qo‘lyozmalari: alif harfiga qofiyalanuvchi g‘azallarning matn tafovutlari* 462
Mehman A.H. *The creation of the Turkic peoples’ novel in the context of world literature.* 481
Rahmatova G.O. *«Devonu lug‘ati-t-turk»da keltirilgan she’rlarni tadqiq etish usullari.* 487
Sulaymonova H.M. *«Rasailu-l-Xavarazmiy» asari arab epistolyar adabiyoti namunasi sifatida* 493
Mahmadrajabov F.D. *Badri Chochiy devonining O‘zbekiston va Erondagi qo‘lyozmalari* 499

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV

TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI

BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY

KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

